O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жумақули Ҳумулий. Тарихи Ҳумулий. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, №37.
2. Иванов П.П. Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821-1825 гг. // Труды института Востоковедения АН ССР, вып. XXVIII. М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1937.
3. Кюгельген А. Легитимация Среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). Алмати: Дайк-пресс, 2004.
4. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). Т.: Фан, 1969.
5. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1: Территория и населения Бухары и Хорезма. Часть 1: Бухара. Т.: Туркпечать, 1926.
6. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари / Масъул муҳаррир: А. Муҳаммаджонов. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.
7. Каримов И.А.. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон, 2000.
8. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т.: “Ўқитувчи”, 1994.
9. Рахматов Х., Набиев Ш. Хіх асрнинг сўнгги чораги–хх аср бошларида бухоро воҳаси сиёсий-маъмурий бирликлари ва аҳолиси хусусида //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 605-608.
10. Bozorboevich R. K. The Ethnic Structure of the Population of the Bukhara Emirate //International Journal on Integrated Education. – Т. 4. – №. 12. – С. 8-12.

YOSHLAR TARBIYASIGA HUQUQIY, AXLOQIY VA SIYOSIY MADANIYATNING UZVIY ALOQADORLIGI

Kamolov Dostonbek Rustam o‘g‘li
O‘zbekiston milliy universitetining Jizzax filiali
kamolov.dostonbek@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va huquqiy madaniyat tushunchalariga ta’rif belgan. Xususan, yoshlar huquqiy madaniyati xususida olimlarning qarashlari keltirilib o‘tilgan. Qolaversa, jahon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarning 3 guruhi, ya’ni: antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, huquqiy madaniyat, yoshlar, yondashuv, demokratiya, axloq.

Kirish

«Huquqiy madaniyat» - keng ko‘lamli, ma’nodor tushunchadir. Uning tahlili maxsus tadqiqot mavzusini taqazo qilishi mumkin va tabiiydir [1]. Yoshlar huquqiy madaniyatini o‘rganish, uning o‘ziga xos tomonlarini aniqlash jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni alohida-alohida o‘rganish zarurligi nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasi

huquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki yoshlar huquqiy madaniyatiga berilgan har qanday tarif ham muayyan tarixiy jihatdan uning mazmunini to‘la-to‘kis ochib bermaydi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini muayyan-tarixiy tushunish, unda bu tushuncha tizimi va kelib chiqishi jihatidan predmetning subyektiv mazmunini takrorlaydi, yoshlarning huquqiy madaniyatini ijtimoiy ong shakllaridan biri deb tushunishni istisno etmasligi u yoqda tursin, hatto taqazo etadi ham.[2]

Asosiy qism

Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasiga tarif berishda, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan huquqshunoslar, olimlar turlicha fikrlar berib o‘tishgan. Bu muammoni hal etishda birinchi navbatda huquq va madaniyat tushunchalari bilan o‘zaro tadqiq qilish katta o‘rin tutadi deydi R. Maxmudov o‘zining «Huquq va madaniyat» nomli risolasida.[3] «Madaniyat atamasi» o‘z hajmi va mazmuni jihatidan xilma-xil bo‘lgan tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Masalan, bu ma’no ostida inson tomonidan vujudga keltirilgan moddiy va manaviy qadriyatlar majmuasi jamiyatning g‘oyaviy holati, uning sifati, ijodiy faoliyat va uning mahsuli, inson faoliyati va uning majmuiy turlari, jamiyatning manaviy hayoti va hakozolar yotadi.

Falsafiy adabiyotlarda «Madaniyat» tushunchasiga 500 dan ortiq tarif berilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich doim o‘sib bormoqda. «Madaniyat» kategoriyasiga berilgan eng ko‘p yondashuv, bu insoniyatning rivojlanish bosqichida qo‘lga kiritilgan moddiy va manaviy qadriyatlar yig‘indisi deb qarashdir.[4]

Huquqiy adabiyotlarda madaniyatning moddiy qadriyat sifatida qaralishini biz A. F Gramina, V. M. Chxekvadze, L. S. Yavich va boshqa mualliflarning ishlarida uchratishimiz mumkin. Ikkinchi bir yondashuvda esa madaniyatga ijodiy faoliyatning sinonim sifatida qaralishidir. Bu yondashuvni huquqiy sohada ishlatadigan bo‘lsak, bunda huquqiy ijodkorlik faoliyati tushuniladi. Huquqiy madaniyatni o‘rganishda bunday yondashuvni E. V. Agranovskaya, E. A. Zarchenko, S. N. Kojevnikov kabi mualliflarning ishlarida uchratish mumkin. Keyingi yondashuv, jamiyat ijtimoiy tizimidagi subyektiv unsurlarni madaniyat tushunchasidan ajratib olishdir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy madaniyatni aniqlashda subyektiv-intelektual unsurlar huquqiy savodxonlik, huquqiy tushunish va boshqalarga tayanib ish olib borgan mualliflar ham mavjud. Bularga S. S. Alekseev, E. A. Lukasheva, R. K Gusinov va boshqalarni ishini misol qilib olishimiz mumkin.[5]

Biz ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan yana bir yondashuv, madaniyat tushunchasini subyektning manaviy rivojlanish darajasi bilan bog‘lab o‘rganishdir. Huquqiy madaniyatni o‘rganishda, bu fikr ham o‘ziga xos o‘rin tutadi, chunki subyektning huquqiy madaniyati darajasi huquqiy madaniyatni tasniflashda uni o‘rganishda asosiy yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi. Jahon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni 3 guruhga bo‘lish mumkin: yani antropologik, sotsiologik va falsafiy yondashuv.[6]

Antorpologik yondashuvda madaniyat tabiat erishgan narsalardan farqli ravishda inson tomonidan yaratilgan ne’matlarni yig‘indisi sifatida tushuniladi.

Sotsiologik yondashuv madaniyatni manaviy qadriyatlar sifatida talqin etadi. Bu erda madaniyat ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi.

Falsafiy yondashuvda esa madaniy hodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog‘liq bo‘lmagan sof tahliliy holda ajratib ko‘rsatiladi.[7]

Yuqoridagi fikrlardan shunday savol kelib chiqadiki: madomiki, madaniyat tushunchasi umummilliy ma’noga taaluqli ekan yani bir qator fanlarda qo‘llanilar ekan, uning tarifini berishning imkoni va umuman zarurati o‘zi bormi? -degan savol tug‘iladi. Shuning uchun ham madaniyat va huquqning o‘zaro aloqadorligini, uning birligi muammosini aniq bir madaniyatga berilgan tarif bilan emas, balki u yoki bu «madaniyat» tushunchasi doirasida aniqlab, uning o‘ziga xos muayyan tarifini ishlab chiqishga harakat qilamiz. Sobiq ittifoq madaniyatshunosligida eng ko‘p tarqalgan madaniyat haqidagi talimotlardan biri bu mavzuning qadr– qimmati tug‘risida bo‘lib, uni moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmui yoki qadriyatlar tizimi asosida marifatga asoslangandir.[8] Uning alohida bilim saviyasidan tadqiqotlar yotadiki, madaniyat tushunchasi bashariyat faoliyatining ijtimoiy – tarixiy amaliyoti davomidagi jarayonlarni o‘zida aks ettiruvchi yakuniy majmua sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mazmunini aniqlash esa, moddiy ishlab chiqarishga band bo‘lgan kishilar qaytib faoliyatining xilma xil unsurlarini ko‘rsatib o‘tish, ularning axloqiy, siyosiy, huquqiy, maishiy va boshqa tomonlarini qayd etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Madaniyat mavzusini qadriyat sifatida tushunish, unga aksiologik nuqtai nazardan yondashishga undaydi. (Aksiologiya – yunonga “aksiya” – arzish, qadriyat, qadriyatlar haqidagi ta’limot) Unga muvofiq u yoki bu hodisada namoyon bo‘ladigan inson faoliyati “madaniy” yoki “madaniyatsiz” sifatida baholanadi. Ma’lumki, huquq va madaniyat o‘zaro bog‘liq kategoriyadir. Madaniyat shaxsning erkin va har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi hamda ta’minotning ijtimoiy rivojlanish darajasining o‘lchovi sifatida maydonga chiqadi. Shunday qilib, madaniyat, sotsiologik ma’noga, inson o‘zini rivojlantiradigan dunyoni bildiradi. Demak, madaniyat falsafasini inson falsafasi sifatida ta’riflaydigan mualliflarning ham fikriga qo‘shilmoq lozim. Yaqingacha madaniyat umumiy nazariyasining to‘liqligicha tadqiq etilmaganligi bois jamiyatda shaxs huquqiy madaniyatini tushunchasini aniqlashda asosan quyidagi unsurlar ajratib ko‘rsatilar edi: shaxsning o‘z huquqlarini bilishi, qonun va boshqa me’yoriy hujjatlarning mazmuni va nimaga yo‘naltirilganini aniqlashi unga nisbatan hurmatni shakllantirishi, qonuniylik va adolatni his qilish.[9]

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarning huquqiy madaniyatiga uning tarkibiy unsurlari asosida ta’rif beradigan bo‘lsak, uni quyidagicha ta’riflash mumkin bo‘ladi: yoshlarning huquqiy madaniyati ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo‘lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etish, hayotga tadbiq eta olish ko‘nikmasi, huquq buzarliklarga nisbatan murosasizlik, qonunlarga itoatkorlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasidir. Yoshlarni yuksak huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta’minlaydi. Darhaqiqat, 2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturida ham ko‘rsatib o‘tilganidek, yuksak huquqiy madaniyat – demokratik ta’minot poydevori hamda huquqiy tizim yetukligini ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi, fuqorolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda betartibligini ta’minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy

jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimdagi samarali faoliyat ko‘rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исмоилов З. Ҳокимият ва ҳуқуқ маданияти. Ҳаёт ва қонун. 1998-й №7-78-б.
2. Тоджихонов У, Саидов Н Ҳуқуқий маданият назарияси Т2. -Т Ўз. Р ИИВ Акад. 1998.
3. Махмудов Р. Ҳуқуқ ва маданият. Т. Ўзбекистон, 1994 йил 4-б.
4. Малая Советская энциклопедия. -Т5-М, 1959-С.238.
5. Алексеев С. С Механизм и правового регулированиява социалистическом государство. – М.-1996 г с 176.
6. Ковалзон М.Я Место понятие, «Культура» в системе категория истарического материализма 1976-С122.
7. Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 1-том. 1998 й. 28-бет.
8. Кушкмна Е.И. Познание, язык культура. М.Г.У. 1984. 40-бет.
9. Kamolov D., Eshonqulov R. DEMOKRATIYANING AXLOQIY JIHATLARI //International scientific and practical conference. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 37-42.

YOSHLARI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKANING O‘RNI (IJTIOMIY FALSAFIY TAHLIL)

Nabiyev Farux Abduraximovich
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ko‘pincha kuchli fan sifatida qaraladigan matematika yosh ongning kognitiv rivojlanishini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqola ushbu muhim rolning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganadi, matematika zamonaviy dunyoning murakkabliklarida harakat qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari va kognitiv qobiliyatlarni qanday rivojlantirishini o'rganadi. Matematik ta'limning ijtimoiy va falsafiy oqibatlarini tahlil qilib, ushbu maqola nafaqat individual intellektlarni shakllantirishga, balki jamiyat tuzilmalari va taraqqiyotiga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so‘zlar: Matematika, kognitiv rivojlanish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, ijtimoiy-falsafiy tahlil, matematik savodxonlik, ijtimoiy ta'sirlar, ta'lim imperativi, intellektual qiziquvchanlik, matematik qidiruv, o'zgartiruvchi kuch.

Matematika insonning intellektual yutuqlarining poydevori bo'lib, uning aniqligi, universalligi va koinotni boshqaradigan yashirin naqshlarni ochish qobiliyati bilan hurmat qilinadi. Ilm-fan, muhandislik va tijoratda amaliy qo'llanilishidan tashqari, matematika yosh ongning kognitiv rivojlanishini shakllantirish uchun